Narsalarni sanash, miqdorni belgilash uchun qo'llaniladigan matematik vositalar, matematikaning asosiy tushunchalari .....	691
<b>To'rayeva Kamola Vosidjon qizi</b>	
O'smirlar xulq-atvoriga ommaviy madaniyatning ta'siri .....	694
<b>Umarova Navbahor Shokirovna, Babayeva Saida Juman qizi</b>	
Nafas olish mashqlarini jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarning adaptiv imkoniyatlariga ta'siri .....	698
<b>Valiyeva N. Y.</b>	
Syujetli-rolli o'yinlar orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish .....	702
<b>Xalilova Dilnoza Furqatovna</b>	
Talabalar imtihon oldi qo'rquv va xavotirlarining psixologik omillari .....	705
<b>Xolmatov Zafar Muxtorjon o'g'li</b>	
Umumiy va noorganik kimyo fanini simmetrik yo'nalishdagi tuzilmaviyligini takomillashganligi .....	708
<b>Xolmurodova Laziza Erkinovna, Xudoyqulova Intizor G'ayrat qizi</b>	
Umumta'lim maktablarida inson resurslarini rivojlantirishga doir zamonaviy boshqaruvning asosiy tamoyillari .....	711
<b>Xusanov Xasanjon Xusanxo'ja o'g'li</b>	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirish .....	716
<b>Yusufaliyeva Gulnora Abdurahmonovna</b>	
Dirijyor-xormeysterlik bo'yicha kasbiy-kompetentlikni shakllantirishning nazariy asoslari .....	721
<b>Z. A. Nuraliyeva</b>	
Boshlang'ich maktab o'quvchilarini o'qitishda kompetensiyaga asoslangan yondashuv .....	724
<b>Zaripova Muslima Qurbonovna</b>	
Xorijiy tajribalar asosida o'quvchilarda kritik fikrlashni rivojlantirishda integrativ yondashuvning ahamiyati .....	727
<b>Zokirova Ma'suma Qahramonjon qizi</b>	
Norasmiy va informal ta'limni tan olishning konseptual asoslari va rivojlantirish yo'llari .....	730
<b>Anvar Allabergenov</b>	
Методы совершенствования слуховых навыков через цифровой сторителлинг в начальных школах .....	735
<b>Раимова Малохатхон</b>	
Biologiya darslari ekologik ta'lim va tarbiyani rivojlantirish omili sifatida .....	740
<b>Quldosheva Dilso'z Sunnatovna</b>	
Xalqaro futzal musobaqalari statistikasi asosida o'yin strategiyalarini tahlil qilish .....	743
<b>Davranov E. O.</b>	
Особенности проведения занятий по биологии с применением современных педагогических технологий .....	748
<b>Койилова Мехринисо</b>	

Boshqaruv kadrlar zaxirasini samarali shakllantirishda gender tenglikni ta'minlashning ijtimoiy-psixologik omillari .....	755
<a href="#">Abdullajanova Dilnozaxon Sultanbekovna</a>	
Ijtimoiy tarmoqlar va raqamli kommunikatsiyaning zamonaviy o'zbek va ingliz tillariga ta'siri.....	761
<a href="#">Abdullayev Shaxobiddin Abduali o'g'li</a>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida stem yondashuvi asosida muhandislik ko'nikmalarini rivojlantirishning dolzarbligi.....	765
<a href="#">Abdullayeva Moxinur O'limasboy qizi</a>	
Proporsiyalar siri.....	769
<a href="#">Arabboyeva Zamiraxon Tadjibayevna</a>	
Zamonaviy ta'limda kreativ yondashuvlar: zamonaviy metodlar va amaliy misollar asosidagi tahlil .....	773
<a href="#">Askarova Zilolaxon Nurmuxamadovna</a>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik savodxonligini rivojlantirish kompetentsiyasi .....	777
<a href="#">Eshmurodova Dilobar Nizom qizi</a>	
Havoning nisbiy namligini aniqlash.....	781
<a href="#">Hasanboyeva Diyoraxon, Tojaliyeva Dilyora</a>	
Yevropa mamlakatlarida ta'lim-tarbiya masalalarining olib borilishi tahlili (Italiya va Fransiya maktablari misolida) .....	784
<a href="#">F. F. Xalilov, Ibdullayeva Dildora Shukrulla qizi</a>	
Individual va differensial yondashuvlarning boshlang'ich ta'lim metodikasi bilan integratsiyasi.....	787
<a href="#">Jinayeva Dilrabo Abdusalomovna</a>	
Blokcheyn texnologiyalari va undan foydalanish yo'llari.....	791
<a href="#">Jomonqulova Fazilat Esirgapovna</a>	
Neyropedagogik yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-bilish faoliyatini shakllantirish.....	794
<a href="#">Jumayeva Mahbuba O'ktam qizi</a>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish texnologiyasi .....	798
<a href="#">Mirsaidova Maxbuba</a>	
Korpus lingvistikasida lingvostatistik tahlil metodi .....	801
<a href="#">Nuriddinov Abrorbek Sayfiddin o'g'li</a>	
Tarbiyalanuvchilarni sensomotorikasining psixologik strukturasi.....	804
<a href="#">Parmonova Laylo Iloxomovna</a>	
Maxsus maktabgacha tarbiya muassasalarida bolalar nutqining ohang, ritm va sur'atini tarbiyalash metodikasi.....	808
<a href="#">Saydaliyeva Xojiya Abduljalil qizi</a>	
Pedagogik faoliyatda shaxslararo munosabatlarning ijtimoiy-psixologik jihatlari .....	812
<a href="#">Shakarboeva Shaxnoza Abdulakimovna</a>	
Talabalarda hunarmandchilik ko'nikmalari va ijodiy salohiyatini rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari.....	816
<a href="#">Sharipova Go'zal Sodiqovna</a>	
Faxriyorning doston yaratishdagi mahorati va ularning badiiylik xususiyatlari .....	820
<a href="#">Tangirova Dilbar</a>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari metodik tayyorgarligini takomillashtirishda elektron ta'lim resurslaridan foydalanish.....	824
<a href="#">Turanova Iroda Egamberdi qizi</a>	
Talabalarni maktabgacha ta'lim tashkiloti va ota-onalar hamkorligini tashkil etishga o'rgatishning metodik asoslari .....	827
<a href="#">Turdiqulova Luiza Zayniddinovna</a>	
O'zbekistonda til ta'limida innovatsiyalar: sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar yondashuvi .....	831
<a href="#">Umarova Iroda Shavkatjon qizi</a>	
Aqli zaif o'quvchilar bilan psixokorreksion ishlarda qo'llaniladigan metodlar.....	835
<a href="#">Usmanova Nilufar Ilhom qizi</a>	
Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning kreativ o'qish madaniyatini shakllantirishda sun'iy intellektidan foydalanish .....	840
<a href="#">Xayitova Firuza Abdullayevna</a>	
Oliy o'quv yurtlarida talabalar ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishda innovatsion hamkorlik modellari samaradorligi .....	844
<a href="#">Xaqulov Komil Yusupovich</a>	



Ta'limda raqamli texnologiyaning o'rni.....	847
<a href="#">Zebuniso Nurtayeva Murodali qizi</a>	
Bo'lajak tarbiyachilarni pedagogik faoliyatga tayyorlashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish .	852
<a href="#">Abduraxmonova Sayyoraxon Shaxobidinovna</a>	
Направленное обучение борцов самостоятельному управлению нагрузкой в тренировке по частоте сокращений сердца .....	856
<a href="#">Алишер Базарбаевич Ашуралиев</a>	
Педагогические возможности развития креативного мышления студентов педагогических вузов ....	859
<a href="#">Каримова Барно Эргашевна</a>	
Инклюзивное образование: интеграция теоретических основ и практических методов для формирования эффективной образовательной среды .....	862
<a href="#">Л. З. Намазбаева</a>	
Влияние славянской мифологии на русскую литературу .....	866
<a href="#">Хайдаров Рамазон Комилжон угли</a>	
Совершенствование методики преподавания русского языка в нефилологических аспектах .....	871
<a href="#">Ходжибекова М. А.</a>	
Мaktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishida qurish-yasash faoliyatlarini tashkil etishning ahamiyati.	875
<a href="#">Sultonova Nurxon Anvarovna</a>	
Xorijiy mamlakatlarda maktabgacha ta'limning o'ziga xos xususiyatlari va tarbiyachi faoliyatining mazmuni.....	878
<a href="#">Nazirova Guzal Malikovna</a>	
Творческий подход к формированию личности будущего воспитателя .....	881
<a href="#">Халкузиева Дилноза Баходировна</a>	
Maktabgacha ta'lim muassasasida huquqiy tarbiyani amalga oshirish yo'llari.....	884
<a href="#">Karimova Umida Sharopovna</a>	
Bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik yondashuvni rivojlantirishning nazariy asoslari.....	887
<a href="#">Mirzayev Shavkat Turdibayevich</a>	
Psixolog talabalarda liderlik kompetentligini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari .....	890
<a href="#">Qurbanova Surayo Tuynazar qizi</a>	
Роль самостоятельного обучения в формировании творчества учащихся .....	894
<a href="#">Курбанова Бузайнаб Нурмухаммадиевна</a>	
Ingliz tili darslarida yuqori sinf o'quvchilarini madaniyatshunoslik yondashuvi asosida umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash metodikasi .....	899
<a href="#">Saxoddinova Muhayyo Eshmamat qizi</a>	
Harbiy ta'lim mashg'ulotlarida modulli texnologiyalardan foydalanish.....	904
<a href="#">Usmonov Adxam Abduxamidovich</a>	
The Impact of Family Celebrations on Stress, Emotional Well-Being, and Human Happiness.....	907
<a href="#">Khasanboy U. Abdusamatov</a>	
Bo'lajak pedagoglarda kasbiy refleksiya ko'nikmalarini shakllantirish usullari.....	917
<a href="#">Shaymardon Norov</a>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual rivojlanishini shakllantirish .....	924
<a href="#">Z. M. Zarifova</a>	
Surxon vohasida yoqilg'i energetika majmui tarixidan.....	930
<a href="#">Boboyeva Sitora Ro'zimaxmatovna</a>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida lingvistik kompetensiyani rivojlantirishda ona tili o'qitish metodikasi fanining ahamiyati.....	933
<a href="#">Qayumova Odinaxon Buvarayim qizi</a>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari kognitiv qobiliyatlarini tarbiyalash .....	937
<a href="#">Shaxaldarova Gulchehra Sag'diyevna</a>	
O'zbek tilida gender xususiyatlarining namoyon bo'lishi .....	941
<a href="#">Qarayeva Mavjuda Yoqubjonovna</a>	
Maktab yoshidagi o'quvchilarda harakatli o'yinlar orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish (kurash).....	945
<a href="#">Qon'irbaev Dastan</a>	
Front-end dasturlashni o'rgatishda algoritmik tafakkurni shakllantirishning ahamiyati va ko'rsatmalari.....	949
<a href="#">To'xtayeva Robiya Ravshanbek qizi</a>	



# FRONT-END DASTURLASHNI O'RGATISHDA ALGORITMIK TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI VA KO'RSATMALARI

To'xtayeva Robiya Ravshanbek qizi

Z. M. Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada front-end dasturlashni o'qitish orqali o'quvchilarda algoritmik tafakkurni shakllantirish masalasi tahlil qilinadi. Dasturlash ta'limining zamonaviy o'quv tizimidagi o'rni, front-end texnologiyalarining (HTML, CSS, JavaScript) algoritmik fikrlashni rivojlantirishdagi roli, shuningdek, real dars jarayonidagi tajriba va kuzatuvlarga asoslangan ilmiy tahlil keltirilgan. Muammoli vazifalar, bosqichma-bosqich yondashuv va vizual vositalar kabi metodikalar orqali o'quvchilarning mantiqiy, izchil va tizimli fikrlashi shakllanayotgani asoslab beriladi. Maqolada, shuningdek, o'qituvchining roli, metodikaning samaradorligi hamda kelgusidagi ilmiy-tadqiqot yo'nalishlari bo'yicha tavsiyalar ilgari suriladi.

**Kalit so'zlar:** front-end dasturlash, algoritmik tafakkur, ta'lim metodikasi, JavaScript, DOM, mantiqiy fikrlash, interaktiv veb-loyihalar, muammoli vazifa, reaktiv dasturlash, o'quv jarayoni, o'quvchi faolligi.

**Abstract:** This article analyzes the issue of developing algorithmic thinking among students through front-end programming education. It discusses the role of programming in modern educational systems and how front-end technologies (HTML, CSS, JavaScript) contribute to the enhancement of logical and structured thinking. The study is based on practical experiences and classroom observations. It justifies the effectiveness of methods such as problem-based tasks, step-by-step approaches, and visual tools in shaping students' systematic and coherent thinking. Additionally, the article outlines the importance of teacher guidance, the effectiveness of pedagogical strategies, and suggestions for future scientific research directions.

**Key words:** front-end programming, algorithmic thinking, teaching methodology, JavaScript, DOM, logical thinking, interactive web projects, problem-based task, reactive programming, learning process, student engagement.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается формирование алгоритмического мышления у учащихся посредством обучения front-end программированию. Описывается значение программирования в современной образовательной системе, а также роль технологий front-end (HTML, CSS, JavaScript) в развитии логического и последовательного мышления. Анализ основан на наблюдениях и практическом опыте, полученном в процессе преподавания. Через проблемные задания, пошаговый подход и визуальные средства раскрываются эффективные методики, способствующие развитию системного мышления. Также в статье представлены предложения по совершенствованию методик обучения и направлениям дальнейших научных исследований.

**Ключевые слова:** front-end программирование, алгоритмическое мышление, методика обучения, JavaScript, DOM, логическое мышление, интерактивные веб-проекты, проблемное задание, реактивное программирование, учебный процесс, активность учащихся.

## KIRISH

Zamonaviy texnologiyalar jadal rivojlanib borayotgan bugungi davrda dasturlash ta'limi nafaqat axborot texnologiyalari sohasi vakillari, balki keng omma uchun ham muhim ko'nikmaga aylanmoqda. Ta'lim tizimida raqamlashtirish jarayonining kuchayishi, sun'iy intellekt, avtomatlashtirilgan tizimlar va veb-illovalarning keng qo'llanilishi dasturlashga bo'lgan ehtiyojni yanada oshirmoqda. Ayniqsa, foydalanuvchi bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot qiluvchi tizimlar – veb-illovalar, mobil interfeyslar, interaktiv sahifalarni yaratishda front-end dasturlash muhim o'rin tutadi. Front-end dasturlash orqali o'quvchilar nafaqat texnik ko'nikmalarni, balki muammoni tahlil qilish, bosqichma-bosqich yechim topish, tizimli va ijodiy fikrlash kabi kompetensiyalarni ham rivojlantiradi.

Bunday salohiyatli ko'nikmalarning asosi bo'lgan algoritmik tafakkur hozirgi kunda raqamli savodxonlikning ajralmas qismi sifatida qaralmoqda. Algoritmik tafakkur insonning muammoni aniqlash, uni kichik qismlarga ajratish, ketma-ketlik asosida yechim topish va bu jarayonni mashina uchun tushunarli shaklda ifodalash qobili-

yatidir. Mazkur tafakkurni shakllantirish, ayniqsa, dasturlashni o'qitish jarayonining muhim vazifasiga aylanmoqda. Aynan front-end dasturlash o'quvchilarga vizual muhitda, real va hayotiy vazifalar orqali algoritmik fikrlashni amaliyotda tatbiq etish imkonini beradi <sup>[1]</sup>.

Shu nuqtai nazardan, "Front-end dasturlashni o'rgatishda algoritmik tafakkurni shakllantirishning ahamiyati" mavzusi dolzarb hisoblanadi. Ushbu maqolada front-end dasturlash ta'limi misolida o'quvchilarda algoritmik tafakkurni shakllantirish jarayonining ahamiyati, samarali usullari hamda bu jarayonning ta'limdagi o'rni tahlil qilinadi. Maqola mazmuni orqali o'qituvchilar va ta'lim tashkilotchilari uchun metodik tavsiyalar ham ilgari suriladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Algoritmik tafakkur – bu inson tafakkurining bir ko'rinishi bo'lib, unda har qanday muammoni aniqlash, uni kichik bosqichlarga ajratish va har bir bosqichni aniq ketma-ketlikda bajarish orqali yechimga erishish jarayoni amalga oshiriladi. Ilmiy adabiyotlarda algoritmik tafakkur ko'pincha informatika va dasturlashga oid masalalarni hal qilishda zarur bo'lgan fikrlash turi sifatida ta'riflanadi. Masalan, J. Wing tomonidan 2006-yilda ilgari surilgan "computational thinking" tushunchasi algoritmik tafakkurga yaqin bo'lib, u muammoni kompyuter nuqtai nazaridan tahlil qilish va bu tahlil asosida yechim modellarini ishlab chiqish jarayonini anglatadi. Algoritmik tafakkur nafaqat texnik bilimlarni, balki abstrakt fikrlash, mantiqiy tahlil va ijodiy yondashuvni ham o'z ichiga oladi.

Algoritmik tafakkurning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat: birinchidan, muammoni aniqlash va tushunish; ikkinchidan, uni bosqichlarga ajratish va har bir bosqich uchun aniq amal rejasini tuzish; uchinchidan, bu rejani ketma-ketlik, shartli tuzilmalar (if-else) va sikllar (for, while) kabi algoritmik konstruksiyalar orqali ifodalash. Bundan tashqari, tafakkur jarayonida turli holatlarni oldindan ko'ra olish, sinovdan o'tkazish va natijalarni tahlil qilish qobiliyati ham muhim hisoblanadi. Ayniqsa, front-end dasturlashda foydalanuvchi harakatlariga javob qaytarish, DOM tuzilmalarini boshqarish, holatga bog'liq kontentlarni ko'rsatish kabi topshiriqlar aynan shunday algoritmik yondashuvni talab qiladi.

Zamonaviy ta'lim tizimida algoritmik tafakkur o'quvchilarning raqamli dunyoda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishlari uchun zarur ko'nikma sifatida qaralmoqda. Turli mamlakatlar ta'lim standartlarida algoritmik tafakkur boshlang'ich bosqichlardan boshlab shakllantirilishi lozim bo'lgan asosiy kompetensiyalardan biri sifatida belgilangan. Bu esa ushbu tafakkurni o'stirishga xizmat qiladigan fanlar, xususan, informatika va dasturlash fanlarining ta'limdagi ahamiyatini yanada oshiradi. Aynan front-end dasturlash bu jarayon uchun qulay vosita bo'lib, o'quvchilarning amaliy faoliyati orqali algoritmik tafakkurini shakllantirishga keng imkoniyat yaratadi. Shunday qilib, algoritmik tafakkur o'quvchilarning nafaqat dasturlashdagi muvaffaqiyatini, balki kundalik hayotdagi murakkab vaziyatlarni tahlil qilish va samarali qarorlar qabul qilish qobiliyatini ham oshiradi.

Front-end dasturlash jarayoni o'zida nafaqat vizual interfeys yaratishni, balki foydalanuvchi bilan interaktiv muloqotni ta'minlovchi murakkab mantiqiy tuzilmalarni ham qamrab oladi. Bu esa, shubhasiz, algoritmik tafakkur asosida ish yuritishni talab qiladi. Front-end sohasida ishlatiladigan asosiy texnologiyalar – HTML, CSS va JavaScript – har biri muayyan darajada muammo yechish faoliyatini talab qiladi. HTML orqali sahifaning strukturasi tuzilsa, CSS yordamida dizayn va joylashuvlar belgilanadi. Biroq aynan JavaScript front-end dasturlashda mantiqiy operatsiyalarni amalga oshirish, foydalanuvchi harakatlariga javob qaytarish va sahifa elementlarini dinamik boshqarish imkonini beradi. Ushbu jarayonlar bevosita algoritmik yondashuvga asoslanadi.

Xususan, DOM (Document Object Model) manipulyatsiyasi orqali sahifadagi elementlarga dinamik ta'sir ko'rsatish, foydalanuvchi tugmani bosganda ma'lumot chiqarish, forma yuborilganda tasdiqlash mexanizmlarini ishga tushirish – bularning barchasi ketma-ketlik, shartli tuzilmalar va sikllar kabi algoritmik konstruksiyalarni amalda qo'llash orqali bajariladi. Hodisalarni boshqarish (event handling) esa foydalanuvchining harakatlariga nisbatan tizimli va oldindan rejalashtirilgan javoblar ishlab chiqishni taqozo etadi. Masalan, biror tugma bosilganda yangi forma chiqishi yoki foydalanuvchi kiritgan ma'lumot to'g'riligini real vaqtda tekshirish – bular algoritmik tafakkurni talab qiluvchi amaliy mashqlar bo'lib, o'quvchilarning fikrlash doirasini kengaytiradi.

Bundan tashqari, zamonaviy front-end yondashuvlarida komponent asosidagi fikrlash modeli hamda reaktiv dasturlash usullari (masalan, React.js kutubxonasi orqali) keng qo'llanmoqda <sup>[3]</sup>. Har bir komponent o'z holati va xatti-harakatiga ega bo'lib, bu holatlarning boshqarilishi, yangilanishi va o'zaro aloqasi orqali foydalanuvchi tajribasi shakllantiriladi. Bu esa o'quvchilardan nafaqat kod yozishni, balki tizimli va abstrakt fikrlashni, modullashtirilgan yechimlarni ishlab chiqishni talab qiladi. Masalan, foydalanuvchining tanloviga qarab elementlar shartli tarzda chiqishi yoki yo'qolishi, dinamik ro'yxatlar hosil bo'lishi, foydalanuvchi kiritgan qiymatga asosan natijaning o'zgarib borishi – bularning barchasi reaktiv model asosida algoritmik tafakkur yordami bilan bajariladi.



Real loyihalarda bu jarayonlar yanada murakkablashadi. Har bir real loyiha o'z ichida foydalanuvchi ehtiyojlari, dizayn talablari, xavfsizlik jihatlari va samaradorlikni hisobga olgan holda ishlab chiqiladi. Shu sababli, front-end dasturchi o'z faoliyatida har bir vazifani algoritmik yondashuv asosida hal qilishi lozim bo'ladi. Bu jarayon o'quvchilarni mustaqil qaror qabul qilish, kodni sinab ko'rish, nosozliklarni aniqlab, ularni bartaraf etish, tizimni yaxshilash kabi amaliy tafakkur faoliyatiga jalb etadi. Demak, front-end dasturlash nafaqat tashqi interfeysni yaratish vositasi, balki chuqur algoritmik tafakkurni rivojlantirish vositasi hamdir.

Algoritmik tafakkurni shakllantirishda o'qituvchining metodik yondashuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, front-end dasturlashni o'rgatish jarayonida bu ko'nikmani izchil va ongli shakllantirish uchun turli metodlar uyg'unligidan foydalanish talab etiladi. Bunda o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini, muammoni tahlil qilish va bosqichma-bosqich yechim topish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan metodlar samarali natija beradi. Ulardan biri – muammoli vazifalar yechimi orqali o'rgatish metodidir. Bu yondashuvda o'quvchi tayyor yechimni yodlashdan ko'ra, avvalo muammoni tushunishga va unga yechim topishga yo'naltiriladi. Masalan, "foydalanuvchi tugmani bosganda matn ko'rinsin" kabi topshiriqlar o'quvchini fikrlashga, DOM bilan ishlashga va hodisalarni boshqarishga majbur qiladi.

Shuningdek, step-by-step (bosqichma-bosqich) yondashuvi algoritmik tafakkurni shakllantirishda alohida o'rin tutadi. Bu metod orqali o'quvchi har bir kichik amaliy vazifani ketma-ketlikda bajargan holda yakuniy natijaga erishadi. Bunday yondashuvda murakkab muammolar kichik bo'laklarga ajratiladi, har bir bosqichda tushuncha mustahkamlanadi va bu orqali tizimli fikrlash shakllanadi<sup>[4]</sup>. O'quvchi avvalo HTML orqali strukturani yaratadi, keyin CSS bilan bezaydi, so'ng JavaScript yordamida interaktivlik qo'shadi. Bu jarayonlar orasidagi bog'liqlikni anglash esa uning tafakkurini puxta asosga quradi.

Bundan tashqari, algoritmik tafakkurni shakllantirishda vizual vositalar – xususan, flowchart (blok-sxemalar) va pseudocode (soxta kod)dan foydalanish samarali hisoblanadi. Vizual tasvirlar orqali o'quvchi muammoning tarkibini, ketma-ketlik va shartli bog'lanishlarini aniq tasavvur qila oladi. Pseudocode esa haqiqiy dasturlash tilidan oldingi oraliq bosqich bo'lib, o'quvchiga fikrni kodlashdan avval aniq ifodalashga imkon beradi. Bu yondashuvlar o'quvchida dasturlashdan qo'rqmaslik, balki unga mantiqiy yondashish ko'nikmasini rivojlantiradi.

Shuningdek, o'quvchini kod yozishdan avval muammoni tahlil qilishga o'rgatish ham muhim bosqich sanaladi. Odatda, boshlang'ich bosqichdagi o'quvchilar muammoni to'liq tushunmasdan kod yozishga shoshiladilar, bu esa noto'g'ri natijalarga olib keladi. O'qituvchi esa o'quvchiga muammoning shartini to'liq o'qib chiqish, asosiy va ikkilamchi ma'lumotlarni ajratish, kerakli natijani aniqlash va faqat shundan so'ng kod yozishga kirishishni o'rgatishi zarur. Bu yondashuv o'quvchining mustaqil tahlil qilish va yechim ishlab chiqish qobiliyatini oshiradi.

Oxir-oqibat, front-end dasturlashda kichik loyihalar orqali tizimli fikrlashni shakllantirish samarali natija beradi<sup>[5]</sup>. Oddiy kalkulyator yaratish, interaktiv menyu tuzish, foydalanuvchi formasi orqali ma'lumot yig'ish kabi loyihalar o'quvchini mustaqil yechim topishga undaydi. Har bir loyiha orqali o'quvchi faqat kod yozishni emas, balki muammoni hal qilish jarayonini o'rganadi. Bu esa nafaqat dasturchilik ko'nikmalarini, balki chuqur algoritmik tafakkurni shakllantiradi. Shunday qilib, muammoli vazifalar, bosqichli yondashuv, vizual vositalar, tahlil qilish ko'nikmasi va loyihaviy faoliyat uyg'unligi orqali o'quvchida algoritmik fikrlash uzviy va barqaror shakllanadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Front-end dasturlash darslari jarayonida olib borilgan kuzatuvlar va tajribalar shuni ko'rsatdiki, algoritmik tafakkurni shakllantirishga yo'naltirilgan metodik yondashuvlar o'quvchilarning fikrlash darajasi hamda amaliy bilimlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Dastlabki bosqichlarda o'quvchilar HTML va CSS kabi statik texnologiyalar bilan tanishganlarida, asosan tayyor misollarni nusxalash va takrorlashga moyillik bildirganlari kuzatildi. Biroq JavaScript tiliga o'tilgach, ayniqsa DOM bilan ishlash, hodisalarga javob qaytarish va shartli mantiqiy tuzilmalar qo'llanilishi talab etilgan bosqichda o'quvchilarning mustaqil fikrlashi zarurligi yaqqol namoyon bo'ldi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tajriba davomida interaktiv forma yaratish, foydalanuvchi harakatiga javoban elementlarni ko'rsatish yoki yashirish, dinamik menyular ishlab chiqish kabi kichik loyihaviy topshiriqlar berildi. Ushbu mashqlar orqali o'quvchilar nafaqat texnik ko'nikmalarni, balki muammoni tahlil qilish, shartli mantiqni qo'llash va kodni bosqichma-bosqich tuzish qobiliyatlarini rivojlantirdilar. Masalan, oddiy "Login" formasini yaratishda foydalanuvchilardan kiritilgan ma'lumotlarning to'g'riligini tekshirish, noto'g'ri bo'lsa xabar chiqarish, to'g'ri bo'lsa keyingi sahifaga o'tishni tashkil qilish topshirig'i orqali ko'plab o'quvchilar algoritmik tafakkur elementlarini muvaffaqiyatli qo'llay oldilar.

Shuningdek, o'quvchilarning dastlabki va yakuniy bosqichdagi ishlari solishtirildi. Boshlanishida kod yozishda chalkashliklar, shartli operatorlarni tushunmaslik, sikllarni noto'g'ri ishlatish kabi holatlar ko'p kuza-tilgan bo'lsa-da, darslar davomida tushuntirishlar, amaliy mashqlar va vizual vositalar orqali bunday xatoliklar asta-sekin kamaydi. Yakuniy bosqichga kelib, o'quvchilarning aksariyati mustaqil ravishda kichik veb-ilovalarni ishlab chiqa olish, foydalanuvchi bilan o'zaro aloqada bo'ladigan komponentlarni yaratish darajasiga yetdi.

O'quvchilar tomonidan bajarilgan amaliy ishlar tahlili shuni ko'rsatdiki, har bir kichik loyiha orqali ular o'zlarining nafaqat texnik salohiyatini, balki mantiqiy fikrlash darajasini ham oshirib bordilar. O'zlashtirish darajasida ham sezilarli o'zgarishlar kuzatildi: birinchi haftada algoritmik fikrlashga ega o'quvchilar ulushi 20–25 % atrofida bo'lgan bo'lsa, o'quv jarayoni yakunida bu ko'rsatkich 70–75 % ga yetdi. Bu esa to'g'ri metodika va izchil yondashuv orqali front-end dasturlash yordamida algoritmik tafakkurni shakllantirish mumkinligini ko'rsatadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Front-end dasturlashni o'qitish jarayonida o'quvchilarda algoritmik tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish imkoniyati amaliy tajribalar, kuzatuvlar hamda tahlillar orqali o'z isbotini topdi. Front-end texnologiyalarining xususiyatlari, ayniqsa JavaScript tilining mantiqiy tuzilmalarga boyligi, o'quvchilarda muammolarga yechim topish, ketma-ketlikni belgilash, shartli va takrorlanuvchi holatlarni tahlil qilish kabi ko'nikmalarni shakllantirish uchun samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa foydalanuvchi bilan interaktiv aloqalarni tashkil etish, DOM manipulyatsiyasi va hodisalarga asoslangan dasturlash o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va tizimli yondashuvini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim jarayonida o'qituvchining roli nihoyatda muhim hisoblanadi. Chunki murakkab tushunchalarni soddalashtirib tushuntirish, bosqichma-bosqich (step-by-step) yondashuvni qo'llash, muammoli vazifalar bilan ishlash va vizual vositalar orqali tushuntirish kabi metodikalar o'quvchining fikrlash darajasini oshiradi. Shuningdek, kichik loyihalar orqali o'quvchilarni kod yozishga emas, balki avvalo muammoni tushunishga va uni algoritmik tahlil qilishga o'rgatish metodikasi o'zining ijobiy natijalarini ko'rsatmoqda.

Algoritmik fikrlashga asoslangan o'quv jarayoni nafaqat dasturlashni o'rgatishda, balki umumiy tafakkur madaniyatini shakllantirishda ham muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Bunday yondashuv o'quvchilarda izchillik, mantiqiylik, samaradorlik, xatolardan saboq olish va ularni tahlil qilish kabi ko'nikmalarni shakllantiradi. Bu esa nafaqat texnik yo'nalishda, balki boshqa fanlar va kundalik hayotda ham foydali kompetensiyalarni yuzaga keltiradi.

Kelgusidagi tadqiqotlarda front-end dasturlash va algoritmik tafakkur o'rtasidagi bog'liqlikni chuqurroq o'rganish, turli yosh toifalari bilan ishlash, zamonaviy dasturlash muhitlarining (masalan, React, Vue) ta'siri va samaradorligini tahlil qilish, shuningdek, gender hamda individual farqlarni hisobga olgan metodikalarni ishlab chiqish tavsiya etiladi. Bundan tashqari, sun'iy intellekt asosidagi o'quv platformalari orqali algoritmik tafakkurni o'rgatish istiqbollari alohida izlanish mavzusi sifatida ko'rib chiqilishi lozim.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qodirova, M. (2020). Algoritmik tafakkurni rivojlantirish asoslari. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
2. Stoilescu, D. A Possible Way to Develop Algorithmic Thinking // Acta Didactica Napocensia.
3. Gonda D., Ďuriš V., Tírpáková A., Pavlovičová G. Teaching Algorithms to Develop the Algorithmic Thinking of Informatics Students // Mathematics. – 2022.
4. Stoilescu, D. A Possible Way to Develop Algorithmic Thinking // Acta Didactica Napocensia. – 2020. – Vol. 13, No. 1. – P. 23–30.
5. Parmentier, Y., Reuter, R., Higuete, S., Kataja, L., Kreis, Y., Duflo-Kremer, M., Denis, B. PIAF: Developing Computational and Algorithmic Thinking in Fundamental Education.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №5**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.